

ZAMONAVIY KOMPOZIT MATERIALLAR ASOSIDA AMALIY SAN'AT ASARLARI YARATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Abdukarimova Mubinabonu Bahtiyorjon qizi

Andijon Davlat Texnika Instituti 1-bosqich talabasi

abdukarimovamubina102@gmail.com

Abdijalilov Abdivohid Abdikhalimovich

Ilmiy rahbar: Andijon davlat universiteti

“Tasviriy va amaliy san’at” kafedrasi katta o’qituvchisi.

vohidrahmon1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15811380>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy amaliy san’at sohasida kompozit materiallardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Art-instalatsiya, urban-san’at va dizayn obyektlari misolida bu materiallarning afzalliklari va ularni jamiyat hayotiga tatbiq etishdagi innovatsion yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: kompozit materiallar, amaliy san’at, innovatsion yondashuv, art-instalatsiya, urban-san’at, dizayn obyektlari, texnologik yangilik, milliy uslub, ekologik materiallar, zamonaviy san’at.

Kirish.

Hozirgi kunda amaliy san’at yangi bosqichga ko’tarilmoqda. U nafaqat an’anaviy usullarda, balki zamonaviy texnologiyalar, materiallar va yondashuvlar asosida ham shakllanmoqda. Ayniqsa, urban-san’at, art-instalatsiyalar va dizayn obyektlari orqali ijtimoiy va madaniy muhitga ta’sir qilish amaliyoti tobora kengaymoqda. O’zbekistonda ham amaliy san’atning yangi yo’nalishlari shakllanib, milliy an’analar va zamonaviy innovatsiyalar uyg’unlashmoqda. Bu jarayonda zamonaviy kompozit materiallar alohida o’rin tutadi.

Asosiy qism.

Kompozit materiallar – ikki yoki undan ortiq moddadan iborat bo’lib, yengillik, mustahkamlik, namlikka chidamlilik kabi afzalliklarga ega. Ular san’at asarlarida, ayniqsa, haykaltaroshlik, dizayn va art-instalatsiyalarda keng qo’llanilmoqda. Zamonaviy san’atda bu materiallar orqali yangi shakllar, ifoda uslublari va texnikalar yaratish imkoni mavjud. O’zbekistonda ham urban-san’at va milliy dizayn obyektlarida kompozit materiallardan foydalanish yo’lga qo’yilgan. Ular tashqi muhitga mosligi va ko’p yillik mustahkamligi bilan ajralib turadi. San’atkorlar uchun bu materiallar yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Kompozit materiallarning xususiyatlari va afzalliklari.

Kompozit materiallar–ikki yoki undan ortiq modda birlashmasidan hosil bo’lib, har bir komponent o’z xususiyatlarini saqlab qoladi. Ular quyidagi ustunliklarga ega:

- engillik va mustahkamlik;
- havo va namlik ta’siriga chidamlilik;
- shakl va fakturalarda erkinlik;
- qayta ishlash imkoniyati;
- ekologik xavfsizlik.

Amaliy san’atda qo’llanilishi.

Kompozit materiallar yordamida amaliy san’at obyektlari – haykallar, maketlar, interyer va eksteryer bezaklari yaratishda qator afzalliklar yaratiladi. Xususan:

- Urban-san’atda mustahkam va engil instalatsiyalar;
- Tashqi muhitga chidamli haykallar;
- Yangicha geometrik va ekspressiv shakllar yaratish imkoni;
- Milliy uslub va modern texnologiyani uyg’unlashtirish.

O‘zbekiston tajribasi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda kompozit materiallardan foydalanilgan art-loyihalar shakllanmoqda. Masalan, shahar muhitida o‘rnatilayotgan zamonaviy skulpturalar va milliy uslubdagi obyektlar ulardan samarali foydalanilmoqda. Oxirgi yillarda Respublikamizda kompozit materiallardan foydalangan holda yaratilgan zamonaviy san’at obyektlari ko‘paymoqda. Xususan, shahar maydonlarida o‘rnatilayotgan haykallar va art-instalatsiyalar zamonaviy texnologiyalar bilan milliy uslubni uyg’unlashtirgan. Bu materiallar san’atkorlarga tashqi muhitga mos, mustahkam va estetik asarlar yaratish imkonini bermoqda.

Xulosa va takliflar.

- Kompozit materiallar amaliy san’atda yangi vizual va texnologik imkoniyatlarni yaratadi;
- Tahlil va tadqiqotlar asosida ularning milliy uslubdagi obyektlarga moslashuvi rivojlanmoqda;
- Ilmiy va amaliy faoliyatda dizaynerlar va rassomlar ushbu materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari zarur;
- Talabalar va yosh mutaxassislar uchun maxsus kurslar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
- Dizayner va rassomlar uchun kompozit materiallar bilan ishlash bo‘yicha treninglar tashkil etish;
- Milliy dizayn markazlarida innovatsion san’at loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибрагимов А.Х. Замонавий санъат ва дизайнда инновацион материаллар. – Тошкент: Иқтисодият нашриёти, 2021. – 154 б.
2. Karimova D. & Ismoilov F. Urban san’atda zamonaviy materiallardan foydalanishning nazariy asoslari. – “San’at va Ilm” журнаli, 2022, №2(18), б. 45–52.
3. Юнусов Р.А. Инновацион технологиялар ва амалий санъатдаги тенденциялар. – Самарқанд: Барқа нашриёти, 2020. – 132 б.